

**TALABALARGA TA'LIM BERISH KOMPETENSIYASINI  
SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN  
FOYDALANISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH  
( RUS TILINI O'QITISH MISOLIDA)**

Nazirova Z.R<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi,  
SamDVMCHBU Toshkent filiali

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 06.01.2025

Revised: 07.01.2025

Accepted: 08.01.2025

**KALIT SO'ZLAR:**

interaktiv metodlar,  
ta'lif kompetensiyasi,  
rus tili o'qitish,  
pedagogik  
texnologiyalar,  
multimedia, onlayn  
resurslar.

rus tilini o'qitish jarayonida interaktiv metodlarning samarali qo'llanilishi va ularning ta'lif jarayonidagi o'rni tahlil etilgan. Muallif, interaktiv metodlarning o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, texnologik vositalar, multimedia va onlayn resurslarning ta'lif jarayonida qo'llanilishi, talabalarни rus tilida erkin muloqot qilishga tayyorlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

**KIRISH.** Hozirgi kunda ta'lif tizimida interaktiv metodlar samarali ta'lif jarayonini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni faollikkha undash, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, va jamoaviy ish olib borish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni katta. Ayniqsa, rus tilini o'qitishda, bu metodlar talabalarning tilni o'zlashtirish jarayonini tezlashtirib, ularni real hayotda muloqot qilishga tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Rus tili — bu nafaqat til o'rganish, balki madaniyat va fikrlash tarzini o'zlashtirishni ham anglatadi, shuning uchun ta'lif jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Ushbu maqolada talabalar uchun ta'lif berish kompetensiyasini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish masalalari ko'rib

chiqiladi. Interaktiv metodlarning samarali qo'llanilishi rus tilini o'qitishda talabalarning til ko'nikmalarini yaxshilash, ularning fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashiga yordam beradi. Ushbu metodlar nafaqat til o'rgatish, balki talabalarning o'z fikrlarini erkin bayon qilish, guruhda ishslash va boshqalar bilan fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Maqolaning maqsadi — rus tili o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish texnologiyasini chuqur tahlil qilish, bu metodlarning ta'limda qanday samarali ishlatilishini ko'rsatish, shuningdek, texnologik vositalardan foydalanishni takomillashtirishni o'rganishdir.

### **Muhokama va metodlar tahlili**

Rus tili mamlakatimizda ikkinchi til sifatida o'rgatilishi zarur bo'lgani sababli, maktab o'quvchilari va oliy ta'lim talabalar ushbu tilni mukammal o'zlashtirishi lozim. Bu jarayonda pedagoglarning mahorati va darsda qo'llanilayotgan metodlar katta ahamiyatga ega. O'quvchilarga o'rganilayotgan materiallarni samarali o'zlashtirishga yordam beradigan metodlar, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha fanlarda o'quvchilarning e'tiborini jalg qiladi va darsdagi faollikni oshiradi. Rus tili darslarida bu metodlarni o'quvchilarning yoshiba moslashtirilgan holda, avval sodda shaklda, keyinchalik esa murakkab shaklda qo'llash kerak. Agar ushbu metodlar to'g'ri qo'llanilsa, yaxshi natijaga erishish mumkin. Bunda o'qituvchi ushbu metodlardan qanday samarali foydalanishni bilishi zarur. Erkin yozish, klaster, aqliy hujum, B-B-B chizmasi, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi, blitz-so'rov kabi usullarni o'quvchilar bilan ishslashda qo'llash mumkin.

F.Qodirova va N.Xolmatovaning "Interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni"(2021) kitobida interfaol metodlar talabalarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan. Ushbu metodlar o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuchaytiradi va ta'limning samaradorligini oshiradi. Masalan, muammoli o'qitish, rolli o'yinlar va munozaralar talabalarni fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o'zaro muloqot qilishga o'rgatadi[1]. Olimlarning tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

"Zigzag" strategiyasi metodida talabalar 7 ta guruhgaga bo'linib, har bir guruhgaga o'z nomi beriladi. Guruhlarga yangi mavzu mohiyatini ifodalovchi matn qismlarga ajratiladi va har bir guruhgaga o'z qismlarini o'rganish vazifasi topshiriladi. O'quvchilar matnni diqqat bilan o'rganib, uni guruhdha tushuntirishadi. Vaqtini tejash uchun, guruh ichidan liderlar tanlanadi, va ular tomonidan vazifa bajariladi. Liderlar tomonidan aytilgan fikrlar guruh a'zolari

tomonidan qo'shimcha ravishda to'ldirilishi mumkin. Har bir guruh o'ziga tayinlangan matnni tushuntirganidan so'ng, matnlar guruhlar o'rtasida almashiladi va bu jarayon takrorlanadi. Boshqa matnlar ham guruhlarga taqdim etiladi. Barcha matnlar mazmuni o'rganilib, o'quvchilar mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratib, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlaydilar, va yangi fikrlar asosida mavzuga oid sxema yaratadilar[2].

Bundan tashqari rus tilini o'rganishda interaktiv usullardan biri bu musiqalardan foydalanish, chunki bu usul so'zlarni tez o'rganishga yordam beradi va o'qish jarayonini qiziqarli qiladi. Kino orqali o'qish esa so'zlarni to'g'ri ishlatish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ushbu mavzuda, rus tilini o'rgatishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning talabalarning ta'lif kompetensiyasini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Interaktiv metodlar nafaqat tilni o'rganishni qiziqarli va samarali qilishga, balki talabalar orasida faol aloqani, fikrlarni erkin ifodalashni va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodlarning qo'llanilishi talabalarning ta'lif kompetensiyasini, ya'nisi bilim olish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, muammolarni hal qilish, va mustaqil fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv metodlar o'qitish jarayonini faollashtirishga, talabalarni darsga jalb qilishga va ularning o'zaro hamkorligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchi bu metodlardan foydalanib, talabalarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkonini yaratadi va ularning o'qish jarayonida ishtirokini ta'minlaydi. Bularning natijasida talabalar faqat nazariy bilim olish bilan cheklanmaydi, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Rus tilini o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish, talabalarni aktiv ishtirokchilariga aylantirish imkonini beradi. Masalan, yuqorida tahlil etgan "zigzag" strategiyasi orqali talabalarga matnni o'qib, uni guruhlar bo'lib tahlil qilish vazifikasi topshiriladi. Bu metod nafaqat talabalarning tilni o'rganishini ta'minlaydi, balki ularni muammolarni hal qilishda ham mustahkamlaydi. Guruh bo'lib ishlash o'zaro fikr almashish va bilimni sinovdan o'tkazishni rivojlantiradi.

Interaktiv metodlarni qo'llash jarayonida, texnologiyalarning roli ham katta. Darslarda multimedya vositalari, internet-resurslar va elektron kutubxonalar kabi texnologik imkoniyatlardan foydalanish talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali ta'lif muhitini yaratadi. Bu metodlar orqali talabalar rus tilining sintaksi, grammatikasi va leksikasi bo'yicha chuqurroq bilim olishlari mumkin. Shuningdek, multimedia vositalari yordamida tilni o'rganish jarayoni osonlashadi va samarali bo'ladi.

  
=====

Interaktiv metodlar o'qituvchilarga talabalarga faqat ma'lumot yetkazib berish bilan cheklanmay, balki ularni o'zlarini erkin ifodalashga va mustaqil fikr yuritishga undaydi. Bu metodlar talabalar orasida sog'lom raqobatni, izlanish ruhini hamda ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, "Blits-so'rov" yoki "Aqliy hujum" metodlarida talabalar tezda savollarga javob berish yoki yangi g'oyalar ishlab chiqish orqali tilni o'zlashtiradi[3].

Interaktiv metodlar faqat o'quvchilarning faolligini oshiribgina qolmay, balki ularning tanqidiy fikrlash va analistik yondashuvlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu metodlar talabalarga o'rgatilayotgan materialni chuqurroq tushunishga, unga o'z fikrlarini qo'shishga va baholashga imkoniyat yaratadi. Bu jarayon o'z navbatida talabaning shaxsiy va professional rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

### Xulosa

Rus tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish, talabalarning o'qishdagi faolligini oshirib, ta'lim kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Interaktiv metodlar, o'z navbatida, talabalarga yangi tilni samarali va qiziqarli tarzda o'rgatish, o'zaro hamkorlikda bilim olish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodlarni samarali qo'llash uchun o'qituvchi interaktiv texnologiyalarni o'zlashtirishi va o'qitish metodologiyasini to'liq tushunishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova, N., & Xolmatova, S. (2021). Interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni
2. A.K.Shamshetova, R.N.Meliboyeva, X.E.Usmanova, I.O. Xaydarov -“Umumiyl psixologiya”. T-2018
3. Hasanboyeva O. Guruhlarda tarbiyaviy ishlari. - T.: O'qituvchi, 1994
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: “Fan”,2006-yil
5. Кенжабаев, Ш. А. (1998). История обучения иностранному языку в общеобразовательной школе южных областей Узбекистана (Сурхандарьинская и Кашкардарьинская области) и пути его совершенствования на современном этапе.
6. Abduljalilovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO 'NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O 'QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(2), 77-81.

7. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO 'NALISHIDAGI TALABALARING KASBIY KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O 'QITISHNING TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMUY-NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI. Journal of new century innovations, 46(3), 119-126.
8. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). SCIENTIFIC-THEORETICAL PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE VETERINARY DIRECTION. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(2), 22-28.
9. Кенжабоев, Ш. А. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 103-113.
10. Кенжабоев, Ш. А. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 17, 177-183.
11. Nishonov, M., & Kenjaboev, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF CHEMICAL EXPERIMENTS IN THE STUDY OF THE TOPIC " PATTERNS OF CHEMICAL REACTIONS ". Science and innovation, 2(B5), 53-56.
12. Kenjaboev, S. (2023). FEATURES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 166-170.
13. Kenjaboev, S. (2023). THE PROBLEM AND SOLUTION OF USING ENGLISH LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 159-165.
14. Buronov, N., & Shog'ulomov, D. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS. In European Scientific Conference (pp. 25-26).
15. Rajabova, S. A., & Normurodova, Q. T. (2024). OROL BO'YI XUDUDLARINING SHORLANGAN VA QURG'OQCHIL TUPROQLARINI QAYTA TIKLASHDA BIOPREPARATLARDAN FOYDALANISH. TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 1(1), 114-116.
-

16. Назирова, З. Р. (2021). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ ВЕТЕРИНАРНОГО ВУЗА НА ОСНОВЕ ИКТ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 629-633.
17. Абдулазизова, С. М., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(3), 94-96.
18. Мадрахимова, З. Ф. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(1), 94-97.
19. Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(1), 166-171.
20. Аблаева, Н. К. (2023). «ТЕНЬ МОЯ НА СТЕНАХ ТВОИХ». (Восточные мотивы в творчестве Анны Ахматовой). *НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “МА'MUN SCIENCE”*, 1(1).